

## YOZUVCHI TOG'AY MURODNING " BU DUNYODA O'LIB BO'LMAYDI"ASARIDAGI AYRIM TURG'UN BIRIKMALARNING FRAZEOLOGIK TAHLILI

ADASHBOYEVA MAXLIYO

SamDCHTI Ingliz tili, II fakulteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7546530>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada frazeologizm tushunchasining tadrijiy tadqiqotlari, nutqimizdagi o'rni va funksiyalari haqida so'z yuritiladi. Adabiy manbalardan olingan misollar yordamida nazariy qarashlar yoritilgan, hamda frazeologizmlarning nutq jarayonida ma'lum bir doirada foydalanishini ochib berishga harakat qilinadi.

**Kalit so'zlar:** frazeologizm, frazeologiya, fraza, birikma, lingvistika.

Frazeologizm- frazeologik birlik, frazema-ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topgan, ma'noviy jihatdan o'zaro bog'liq so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan yaxlitligicha ko'chma ma'noda qo'llanadigan va bo'linmaydigan barqaror (turg'un) bog'lanmalarning umumiy nomi. Frazeologiya-tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida XX asrning 40-yillarida rus tilshunosligida payday bo'lgan. Uning shakllanishiga dastlab rus olimi A.A.Potebniya, I.I.Sreznevskiy, A.A.Shaxmatovlarning hissasi katta. Frazeologiya-(Yun.phrasis-ifoda, ibora ,ifoda ,logos-ta'limot) iboralar ifodasi haqida ta'limot degan ma'noni anglatadi.[uz.m.wikipedia.org]

Frazeologiyaning asosiy maqsadi- frazeologizmlar tabiatini va ularning kategoriyal belgilarini o'rganishga hamda frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni ya'ni iboralarni nutqda oldindan tayyor bo'lmagan so'z birikmalaridan farqlab va ajratib olishdir.

O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Shu kungacha frazeologizmlar Sh.Raxmatullayev, B.Yo'ldoshev, A.Mamatovlar tomonidan turli jihatdan o'rganilgan. Frazeologiya bo'yicha olimlarimiz tomonidan bir nechta lug'atlar ham tuzilgan. Yozuvchilarimizdan Abdulla Qodiriy, Abdullah Qahhor, Hamid Olimjon, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibini o'rganilgan. SamDU qoshida 70-80-yillarda frazeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi va maxsus to'plamlar ishlab chiqaruvchi markaz faoliyat ko'rsatgan.[uz.m.wikipedia.org]

Frazalar tuzilishiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

1. So'zga teng.

2. Gapga teng.

Katta og'iz, ammaning buzog'i [1]

Yuzi yorug' bo'ldi, sirkasi suv ko'tarmaydi[2]

Frazalar tayyor lug'aviy birlik-so'zga teng bo'lganligi tufayli so'zga xos shakl va ma'no munosabatiga ham ega bo'ladi. Buni Tog'ay Murodning "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" asarini tahlil qilish orqali o'rganib chiqamiz.

1. Birdan qoziqday qoqilib qoldi. [Tog'ay Murod;2021] Bu gapda qoziqday qoqilib frazemasi hol vazifasida kelgan, -day o'xshatish qiyoslash qo'shimchasi, -il aniq nisbat, -ib esa ravishdosh shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha, (ot+fe'l) shaklida hosil bo'lgan.

2. Botir firqa umid suvlarini sepib ketdi. [Tog'ay Murod;2021] Ushbu gapdagi umid suvlarini sepmoq frazemasi ham hol vazifasida kelmoqda. Qaratqich kelishigi belgisiz qo'llangan, egalik va tushum kelishi yordamida bog'langan.

3. Botir firqa faollarga yuz soldi. [Tog'ay Murod;2021] Quyidagi gapda qatnashgan fraza kesim vazifasini bajaryapti. -ga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi yordamida bog'langan.

4. Botir firqa yurak yutib, bir ishga qo'l urdi. [Tog'ay Murod;2021] Yurak yutib va qo'l urdi birikmalari frazema hisoblanadi. Bunda birinchisi hol, ikkinchisi kesim vazifasida kelyapti. Ikkala birikma ham -ni tushum kelishigining belgisiz shakli yordamida bog'langan va ikkalasi ham (ot+fe'l) shaklida yasalgan.

5. Quyosh sharq burjidan....falak gilamiga qadam qo'yar bo'ldi. [Tog'ay Murod;2021] Ushbu gapda ham frazema kesimni ifodalab kelgan va belgisiz kelgan qaratqich kelishigi hamda jo'nalish kelishigi -ga bilan bog'langan.

Xulosa o'rnida qayd qilish joizki frazeologizmlar qadimdan nutqimizda faol foydalanilgan va unga "nutq bezagi" deya ta'rif berilgan. Ular nutqda avvaldan tayyor holda bo'lganligi uchun unga til va taffakur bilan bog'liq hodisa sifatida qaraladi.

### References:

1. Mahmudov.N, Nurmonov.A.O'zbek tiling nazariy grammatikasi.Toshkent-2007.
2. Sh.Rahmatullayev.O'zbek tilining frazeologik lug'ati.Toshkent-1978.
3. Tog'ay Murod.Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi.Nurafshon business-2021.
4. [uz.m.wikipedia.org] sayti.
5. [asaxiy.uz] sayti.